

“Golden Resource Co., Ltd” (Xitoy) kompaniyasi vakillari bilan uchrashuv

Xitoy Xalq Respublikasining “Golden Resource Co., Ltd” kompaniyasi tomonidan qurilish materiallarni ishlab chiqarish va energo tejamkor materiallarni ilmiy tadqiq qilish, qishloq xo‘jaligi sohasida issiqxona va baliqlarni intensiv usulda yetishtirish bo‘yicha asbob-uskunalarni ishlab chiqarish hamda kimyo sanoatidagi loyihalar bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyani amalga oshirish belgilangan.

Shunga ko‘ra, 2018-yil 20-dekabr kuni ushbu kompaniya vakillari O‘zbekiston respublikasi Fanlar akademiyasiga tashrif buyurdi. Mehmonlarni O‘zR FA vitse-prezidenti Baxtiyor Ibragimov, Qishloq xo‘jaligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi direktori Baxodir Xoliqov, Xalqaro quyosh energiyasi instituti direktori Nuriddin Matchanovlar kutib oldilar.



Kompaniya vakillari energo tejamkor materiallar, issiqxona hamda baliqlarni intensiv ko‘paytirishda zarur bo‘lgan asbob-uskunalarni ishlab chiqarish bo‘yicha o‘z takliflarini bildirdilar va ushbu hamkorlik ikki tomon uchun ham istiqbolli bo‘lishini ta’kidladilar.